

UDK: 63.632.7.632.93

POLIZ SHIRASI (APHIS GOSSYPII)NING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA ZARARI

Guljamol Raxmanjanovna Raxmonova q.x.f.f.d., O‘simliklar karantini va himoyasi
ilmiy taqdiqot instituti Andijin mintaqaviy filiali

guljamol86@mail.ru

Abstract. *This article provides information about the damage and signs of damage to melon varieties by aphids, which are considered the main pest of pumpkin crops in the Fergana Valley.*

Key words: *polypody crops, melon varieties, damage, signs of spoilage.*

Kirish. Teng qanotlilar (*Homoptera*) turkumining *Aphidinea* kenja turkumiga mansub Poliz shirasi-*Aphis gossypii* qovoqdoshlar oilasiga mansub ekinlarni nixollik davridan hosil etilishiga qadar zararlashi qayt etildan. Poliz shirasi 46 ta turdagi o‘simliklar bilan oziqlanib zarar keltiradi [2].

Tadqiqot natijalari va ularning taxlili. Poliz ekinlarida rivojlanadigan so‘ruvchi zararkunandalardan shiralarning agrobiotsenozida ahamiyati katta hisoblanadi. Shiralarning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular populyatsiyalarida 2 shakli mavjud: Biri qanotli shiralalar bo‘lib, ularning maqsadi zotni dala bo‘ylab tarqatish, boshqa ekin turlariga o‘tib zarar keltirish bo‘lsa, ikkinchisi-qanotsiz, tirik tug‘uvchi urg‘ochilari bo‘lib, qulay sharoitda avlodlarini tez ko‘payib ketishini ta‘minlaydi. Shiralarning populyatsiyalarida vegetatsiya oxirida erkak va urg‘ochi zotlar paydo bo‘lib, urchib tuxum qo‘yish va shu shaklda qishlab qolish ko‘pchilik turlarga xosdir. Ob-havo sharoitaga qarab ya‘ni bahorning erta yoki kech kelgan yillarida shiralarning qishlovdan chiqishi kecha va kunduzli o‘rtacha havo harorati +7-8 °C atrofida bo‘lganida dastlabki avlodlari chiqishi kuzatildi. Birinchi avlod shiralalar begona o‘tlar va madaniy ekinlarda to‘da hosil qilib to‘planishi kuzatilgan [2-4].

*Aphis gossypii*ning Scrophulariaceae, Brassicaceae, Asteraceae, Lamiaceae, Rosaceae va Malvaceae o‘simliklaridan Asteraceae, Solanaceae, Cucurbitaceae oilasiga

mansub o‘simliklarni shirasi bilan oziqlanib hayot kechiradi. Cucurbitaceae oilasiga kiruvchi o‘simliklarida koloniyalar hosil qilib zararlaydi. Shiralar so‘rib oziqalashini tufayli, o‘simlik poya va ildizlardagi zaxira ozuqalar miqdori kamayadi, o‘simliklarda fotosintez jarayonlari buzilib, barglarning shakli o‘zgaradi, uning o‘sinh va rivojlanish xususiyatlari sust o‘tib, hosil me‘yori va sifati kamayib ketishiga olib keladi.

Natijada zararlangan o‘simlikda zamburug‘lar rivojlanib, barglarning fiziologik xususiyatlarini to‘la izdan chiqaradi. O‘simlikning o‘suv nuqtalariga to‘planishi va ozuqalarini so‘rib olishi tufayli, o‘simlikda yangi barglar paydo bo‘lmaydi, maysalarda modda almashuvi buzilib, to‘la nobud bo‘lishi ham kuzatiladi. Zararlanish yuqori bo‘lgan hollarda qarshi kurash tadbirlari o‘z vaqtida to‘g‘ri qo‘llanilmasa hosil mutloqo olinmaydi. Qovun va tarvuz palaklari aprel-may oylarida shiralar bilan zararlansa, palak ostidagi erlar ham shiralar chiqargan chirindilarga to‘lib ketadi. Natijada o‘simlik tanasida, erlarda ham qoraygan chiqindilarni ko‘rish mumkin [3-5].

Poliz shirasini rivojlanish dinamikasini o‘rganish maqsadida Farg‘ona vodiysi sharoitida qovunni to‘rtta navi tanlab olindi. Tadqiqotlarni qovunning “Obi-novvot (gibrit)”, “Ko‘kcha”, “Shakarpalak”, Oltin vodiy” navlarini 0,20 gektar maydonga ekib, qarshi kurash tadbirlari o‘tkazilmadi. Yozyovon tumanida qovunni “Obi-novvot (gibrit)” navi mart oyining III o‘n kunligida plynka ostiga ekildi. Andijon, Baliqchi tumanlarida qovunni “Obi-novvot (gibrit)”, “Ko‘kcha”, “Shakarpalak”, Oltin vodiy” navlari aprel oyining I o‘n kunligida plynka ostiga 0,20 gektar maydonga ekilib, uyg‘unlashgan qarshi kurash tadbirlari o‘z vaqtida o‘tkazildi.

Poliz shirasisining soni may oyining I-II o‘n kunligida zararlash darajasi yuqori bo‘lgani aniqlandi. Avgust oyining III o‘n kunligi va Sentabr oyida hosil yig‘ib olingandan so‘ng, palaklar qurib qoldi. Natijada zararkunandaning zarari kuzatilmadi. Qovunning to‘rtta navida barglar hisobida vegetatsiya davri o‘rtacha 32,3 dona bo‘lgani kuzatildi (1-diagrammasiga qarang).


Poliz ekinlarida paydo bo‘lgan shiralarga qarshi kurash tadbirlarini o‘z vaqtida samarali tashkil etilmasa o‘simlikga keltiradigan zararni miqdorini kamaytirishga

erishilmaydi. Aprel-may oylarida poliz shirasi boshqa ekin turlarida, dalalardagi qulay biotik, abiotik omillar natijasida shiralarni soni ko‘payib ketishi sababli hosildorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

1-diagrammasi

Qovun navlarini poliz shirasi bilan zararlanish diagrammasi

(Farg‘ona vodiysi sharoitida)



Tabiatda uchrovchi foydali entomofaglar, afidofag-yirtqichlar, oltinko‘z, shiraxo‘r qo‘ng‘izlar, vizzildoq pashshalar, xon qizi, gallitsa pashshalari eng faol shiraxo‘r yirtqichlar hisoblanadi, lekin ushbu entomofaglar shiralarga nisbatan ekin maydonlarida kam uchrasa ya‘ni shiralarni zarar miqdori 100 barg hisobida 50 ta bargda o‘rtacha 50 tadan ko‘p shira to‘g‘ri kelsa yoki ko‘z bilan chamalash usuli orqali barg satxining 3/2 qismi zararlangan bo‘lsa ta‘sir etuvchi moddasi deltametrin 0,25-0,5ga/l, nuvaluron+bifentrin 0,3-0,4 ga/l preparatlarini o‘suv davrida 2 marta qo‘llash ham yuqori samara beradi [1-2].



1-rasm. Tajriba maydonidagi qovun ekinlarining poliz shirasi bilan zararlanishi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Асқаралиев Х. Полиз шираси ва унга қарши кураш тадбирлари// «Ўзбекистонда сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликнинг аҳволи, муаммолари ва истиқболлари» мавзусида илмий-амалий конференция. – Тошкент, 2003. – Б.154-156.

2. Рахмонова Г.Р. Особенности развития вредных организмов дыни в збекистане и мерты борьбы с ними. I Международное книжной издание стран Содружества Независимых Государств «Лучший молодой ученый-2020» конференция г.Нур-Султан, Казахстан.13-14 март 2020. – Б.53-56.

3. Торениязов Э.Ш., Юсупов Р.О., Эшмуродов Э., Полиз далаларида зараркунанда турларига қарши курашнинг самарадорли усули. “Ўсимликларни ҳимоя қилиш тизимининг ўрни ва истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция мақолалар тўплами. – Тошкент, 2016. - Б.152-154.

4. Яхяев Х.Қ., Рахмонова Г.Р. Ўзбекистонда етиштирилаётган қовун навлари зараркунанда ва касалликларига қарши кураш чоралари. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. - Хоразм: 2020. - Б.-55-58.

5. Абдуллаева Х.З., Рахмонова Г.Р. Қовуннинг фойдали хусусиятлари ва зараркунандалари// Интер наука журнал. – Москва. - №13 (95), част 2, 2019. – С.54-55.